



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Reprezentativ

ÒZBEK MINIATYURA SAN'ATI YÒNALISHLARI

Mayra Xaydarova Ergashovna¹

¹ Qarshi Davlat pedagogika universititining

Pedagogika institute Shahrizabz shahri

Muhandislik grafikasi fakulteti

Tasviriy san,at va chizmachilik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5759372>

ANNOTATSIYA

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Maverannaxrga Shayboniylar o'zbek sulolasi kelishi bilan Buxoro va Samarqandda qo'l yozuvi kitoblari san'ati sifatida miniatyura jadal rivojlana boshladi.

Bu davrda Buxoro miniatyura maktabining rivojlanishiga Kamoliddin Behzod ijodi katta ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik Buxoro maktabi o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, o'zgacha noyob uslubni yaratadi. Ushbu uslub haqida Evropaning eng yirik tadqiqotchilaridan biri F.Rishar, "Fors kitob san'ati tarixining alohida bobiga loyiqdir" degan edi. Samarqand miniatyurasi esa mahalliy an'analarni rivojlantirishda davom etmoqda. Hozirgacha saqlanib qolgan O'zbekiston qo'lyozma kitoblari va kitob miniatyuralari namunalari bizga XV asrdan oxiridan XIX asrgacha bol'gan rivojlanish yo'lini kuzatishga imkon beradi. Mazkur davrda ushbu san'at gullab-yashnashgan (16-17 asrlar) hamda uzoq vaqt turg'unlikni boshdan kechirdi. Ushbu turg'unlik oxir-oqibat ushnu san'atning 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida yo'q bo'lib ketishiga va uni litografik illyustratsiyalar bilan

almashtirilishga olib keldi. - Miniatyura bugungi kunda nima uchun muhim va nima sababdan YuNESKO uni saqlashni qo'llab-quvvatlamogda? Sizing fikringizcha, nomoddiy madaniy merosni saqlashning asosiy muammosi nimadan iborat? - Har bir millatning noyob nomoddiy madaniy merosini saqlash muammosi juda dolzarb muammodir, xususan O'zbekistonda ham. 2018 yil fevral oyida Anqarada Turkiyaning tashabbusi bilan Ozarbayjon, Eron Islom Respublikasi va O'zbekiston ishtirokida zamonaviy miniatyurani Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritish uchun hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha ekspertlar yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2020 yilda ushbu nominatsiya 16-dekabr kuni YuNESKOning nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining 15-sessiyasida muvaffaqiyatli tasdiqlandi. Ushbu uchrashuvda ishtirok etgan



mamlakatlar va, avvalambor, miniatyuristlar uchun bu katta quvonch va g'ururdir. Mazkur nominatsiyaning tasdiqlanishi ushbu san'at turining va uning ijodkorlarining zamonaviy jamiyat madaniyatiga qo'shgan hissasining ahamiyatini e'tirof etilishidir, zero u "o'ziga xoslik va davomiylik tuyg'usini" shakllantiradi, tajriba almashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va zamonaviy miniatyurani kelajakdagi rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Kamoliddin Behzad nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida (Toshkent) miniatyura rasmlari va xattotlik kafedrasini ochildi. Uning bitiruvchilari zamonaviy ijodiy jarayonda faol qatnashmoqdalar. 90-yillarda O'zbekistonning Buhorom Samarqand, Toshkent va Hiva kabi yirik shaharlarida mahalliy aholi orasida ham, chet ellik san'at ixlosmandlariorasida ham talabi katta bo'lgan miniatyura rasmlarini ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab xususiy ustaxonalar paydo bo'ldi.

Litografik nashrlarning paydo bo'lishi va kitob matbaasining rivojlanishi miniatyura san'atini asta-sekin o'z faoliyatini to'xtatishiga olib keldi. O'zbekistonda miniatyura san'atining tiklanishi 20 asrning so'nggi uchdan bir choragida, ya'ni u unutilib yuborilganiga yarim asrdan ko'proq vaqtdan so'ng boshlandi. 70-yillarda "Usto" xalq ijodiyoti ustalarining uyushmasi qoshida badiiy rangtasvirning ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. Uni

taniqli o'zbek rassomi Chingiz Axmarov boshqardi. Hozirgi kunda miniatyura qo'lyozmalarining illyustratsiyasi sifatida emas, balki yangi ko'rinishd, ya'ni asrlar davomida shakllanib kelingan uslub an'analarini yangi shaklga o'tkazgan dekorativamaliy san'atning o'ziga xos turi sifatida qayta tiklandi. Klassik miniatyura stilistikasidan 3 foydalangan holda, hunarmandlar an'anaviy kundalik turmushning turli xil uy-ro'zgor' anjomlarinin rasm va bezaklar bilan bezashni boshladilar. Miniatyuralar bilan dekorativ vazalar, idish-tovoqlar, qutilar bezatiladi, lak va charm shiplar yoki syujetli rasmlar yaratadi, childirmalar va oshqovoqlarbezatiladi. Shunday qilib, miniatyura "jonli meros" ga aylandi. O'tmishdan kelgan an'ana yangi hayotni topdi. Bugungi kunda miniatyurachilarimiz milliy va xorijiy ko'rgazmalarining faol ishtirokchilari bo'lib, ularning asarlari ko'plab mahalliy va xorijiy muzeylarda va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Bular Shomaxmud Muxamedjanov, Niyozali Xolmatov, Davron Toshev, Munira Satibaldieva, Muzaffar Po'latov, Vladimir Lugovskoy, Olim Kamolov, ota va o'g'il Bahodir va Behzod Xodimetovlar va boshqalardir. Zamonaviy miniatyura O'zbekiston madaniyati va san'atining ajralmas qismiga aylangan. O'zbek miniatyurachilari asarlari yuqori mahorat va didni, nostandart kompozitsion echimlarni, materiallarni izlashni, mavzuni dolzarblashtirish qobiliyatini o'z ichida birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temuriylar tarixi